
Seysmik diagnostika uskunalari - Mass-spektrometr va uning yer osti suvlarining izotopik tarkibini o'rganish va zilzilalarni bashorat qilish imkoniyatlari

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-sonli qarori asosida Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutiga Buyuk Britaniyadan 435 000 USD qiymatga ega Mass-spektrometr uskunasi xarid qilindi. Hozirda Gidrogeoseysmologiya laboratoriyasida uskunaning montaj-sozlash ishlari olib borilmoqda.

Kelishuvga ko’ra, Rossiya Federatsiyasi poytaxtidan OOO “MIT” korxonasi shu uskuna muhandis sozlovchilari (servis-muhandislar - S.V.Ovchinnikov va D.A.Grishin) institutga tashrif buyurishib, Mass-spektrometr uskunasini montaj va sozlash ishlarini boshlab yuborishdi.







Mazkur uskuna o’ta murakkab qismlardan iborat bo’lib, uni montaj va sozlash ishlari katta mahorat va malaka talab etishi ayon bo’lmoqda. Ushbu uskuna ishga tushirilganidan so’ng, respublikamizdagi mavjud quduqlarning yerosti suvlaridan olingan namunalar asosida zilzila darakchilarini izlash imkonini beradi, ya’ni, yerosti suvlaridagi uglerod, kislorod, vodorod, oltingururt, azot izotoplari nisbatlarini o’lchash imkoniyatiga ega bo’lib, elementlarning genetik bog’lanishlari haqida axborot olish hamda izchil tahlillar asosida zilzila sodir bo’lishi anomaliyalarining mexanizmini tadqiq qilish imkoniga erishiladi.